

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

LATIBOV SHOXRUXBEK MAXAMATYUSUP O‘G‘LI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA MEHNAT MUHOFAZASINI
BOSHQARUV VA TASHKIL ETISH TIZIMINI JORIY ETISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.10.01 – Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Latibov Shoxruxbek Maxamatyusup o'g'li

Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish samaradorligini oshirish..... 3

Латибов Шохрухбек Махаматюсуп ўғли

Повышение эффективности внедрения системы управления и организации охраны труда в физической культуры и спорта 19

Latibov Shokhrukhbek Makhamatyusup o'g'li

Increasing the effectiveness of the introduction of the system of management and organization of labor protection in physical education and ports..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

LATIBOV SHOXRUXBEK MAXAMATYUSUP O‘G‘LI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA MEHNAT MUHOFAZASINI
BOSHQARUV VA TASHKIL ETISH TIZIMINI JORIY ETISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

05.10.01 – Mehnatni muhofaza qilish va inson faoliyati xavfsizligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2968 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) (www.tdtu.uz) veb-sahifasi va «Ziyonet» Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Narziyev Shovkiddin Murtozayevich

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yo‘ldosheva Ozodaxon Muxammadsodiq qizi

texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Shukurova Sayyora Sa’dullayevna

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «_____» soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54. E-mail: rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. E-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

R.V. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Ya.O. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

S.S. Sulaymanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu boisdan ham, sport faoliyati bilan muntazam shugʻullanuvchilarning mehnatini muhofaza qilish, baxtsiz hodisalar va shikastlanishlar dinamikasini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga istiqboldagi ustuvor vazifalardan biri sifatida eʼtibor qaratilmoqda. Chunki, Jahon sportida kasbiy xavflar tahdidida boʻluvchilar sonining ortishi, sodir boʻladigan xavfli vaziyatlarning oldini olish, mehnat muhofazasini taʼminlashning huquqiy-normativ, tashkiliy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy, sanitar-gigiyenik, davolash-profilaktik jihatdan tartibga solish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sportchi tayanch harakat apparatlari kasalliklarining 40% boʻgʻimlar jarohatlanishi, sinishlar–7,1%, mushaklar shikastlanishi–6%, lat yeyish–6,2% sikllik va sport oʻyin turlarida koʻp kuzalatiladi. Shu jihatdan ham, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan taraqqiy etgan va etayotgan mamlakatlar jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini rivojlantirishni yagona tizimda muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Dunyo amaliyotida mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi samarali tizim sifatida tan olinayotgani va oʻz isbotini topgani bois, sportchilarning xavfsizligini taʼminlash, sport mashgʻulotlari turlarini hisobga olgan holda innovatsion qulay sharoitlar yaratish usullarini rivojlantirish hamda takomillashtirish boʻyicha ilmiy izlanishlar davlat tomonidan qoʻllab quvvatlanmoqda. Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimining sifatini sezilarli yaxshilash, xususan sportchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va sport inventrlarining xavfsizligini optimallashtirish, mehnat xavfsizligini oshirish unumdorlikni aniqlash hamda mehnat jarayonida shikastlovchi omillarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yoʻnalishda, jumladan, sportchilarning faoliyat xavfsizligini taʼminlovchi texnik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning asosiy parametrlarini optimallashtirish, mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish jarayonlarini modellashtirish boʻyicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mehnat muhofazasini boshqarish tizimi modeli, mehnatni muhofaza qilish unumdorligini hisoblash usuli hamda mehnatni muhofaza qilish tizimi samaradorligini aniqlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda sportni keng targʻib qilish, bolalar va oʻsmirlar sportini rivojlantirish, sportchilarning yuqori marra-larni egallashi uchun salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida, jumladan “...jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanadigan aholi sonini 2026 yilda 33 foizga chiqarish, ... sport oʻyinlari

o'tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash, ... oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022 yilda 62 foizga, 2026 yilda 85 foizga oshirish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jismoniy tarbiya va sportda muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2022 yil 11 apreldagi PQ-201-son "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 20 avgustdagi PQ-3913-son «Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish hamda mehnatini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. II. «Mehnat unumdorligini oshirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mehnatini muhofaza qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilashi bo'yicha dolzarb masalalarni yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlarida va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan Worcester Polytechnic Institute, Wright State University, University of Michigan va University of California (AQSh), Seoul National University (Janubiy Koreya), University Malaysia Perlis (Malayziya), Forschungslaboratorien der Siemens AG (Germaniya), University of Manitoba (Kanada), Samara davlat texnika universiteti, Moskva davlat sport va jismoniy tarbiya akademiyasi, Ulyanovsk davlat texnika universiteti (Rossiya), Belarus Milliy texnika universiteti (Belarussiya), O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat muhofazasini boshqaruvini mexanizmlari va muammolariga doir ilmiy-nazariy masalalar ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazidadir. Mehnat muhofazasi qoidalarini ishlab chiqish, mehnat xavfsizligini ta'minlash usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy faoliyatni rivojlantirishga olimlardan O. Persalo, M. Vapaavuori, L. Louximo, I. Vuori, A. Axo, P. Renstrom, J. Sandelin va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Shu bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini samaradorligini oshirish bo'yicha bilan o'zaro bog'liqlikdagi muammolar A. Lazernikov, Z.S. Mironova, V.N. Platonov, V.F. Bashkirov, Dj. Ekstrand, I.P. Ratov, D. Makintayr, R. Loyd-Smit, G.Ye. Luts, U.A. Grana kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

Mehnat xavfsizligini oshirishga respublikamiz olimlari o'zining ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'z ulishlarini qo'shmoqdalar. Mehnatni muhofaza qilish va uni tartibga solish borasida S.Sulaymanov, O.Q.Abduraxmonov, O.R.Yuldashev, O.M.Yo'ldosheva, R.R.Nurmamatova, Sh.M.Narziyev, S.S.Shukurova, X.M.Kamilov, N.B.Gaibnazarova, K.A.Atabayev, Sh.M.Kurbonov, M.M.Tolipov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borib ijobiy natijalagan erishgan.

O'tkazilgan xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar tahlillar va o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasi boshqaruvini tashkil etish, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruvi tuzilmasini faoliyati samaradorligini oshirish borasida muammolarga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat muhofazasi tizimining samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini rivojlantirish hamda sport faoliyati ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlili;

sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini sportdagi shikastlanishlar va xavfsizlik ko'rsatgichlariga ta'sirini nazariy asoslash, mehnat muhofazasi ishlarining tashkiliy sifatlarini baholash uslubini asoslash;

jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimining tuzilmasi tarkibini ishlab chiqish va uning funktsiya va vazifalarini belgilash;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruv tizimi samaradorligining matematik modelini ishlab chiqish;

jismoniy tarbiya va sportdagi shikastlanishlarning xavfsizlik ko'rsatgichlarini mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi samaradorligini oshirishga oid tashkiliy va iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti jismoniy tarbiya va sport sohasida mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqaruv tizimi strukturasi elementlarini o'zaro bog'lovchi ko'rsatgichlar.

Tadqiqotning predmeti sport faoliyati ishtirokchilarining hayoti va sog'lig'i uchun xavflarni kamaytirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini takomillashtirishni ilmiy asoslash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya sportda mehnat muhofazasini tashkil etish, sportdagi shikastlanishlarining sabablarini o'rganish, matematik statistika, tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, fotoxronometraj, videoxronometraj, o'quv-mashq va musobaqa jarayonlarida qon bosimi va tana haroratini o'lchash, shikastlanishga oid anketa-so'rov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish tizimi hamda xavfli holat, xavfli hodisa yuzaga kelishi mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etishga ta'sirini baholash imkoniyatini beruvchi boshqaruv jarayonidagi bir-biridan mustaqil uch bosqichni va uch turdagi boshqaruvni olib borishni ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruvi tuzilmasi va elementlar iyerarxiyasi orqali takomillashtirilgan;

sport tashkilotlari mehnat muhofazasi xizmati (boshqarmasi, bo'limi, shu'basi, mutaxassisi) boshqaruv va tashkil etish tizimi, sportchining jismoniy o'quv mashqlari, sport o'yinlari, musobaqalar jarayonidagi shikastlanishlarining chastotasini inobatga olgan holda monografik balli baholash usulli ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi ehtimollar nazariyasi qonunlari asosida matematik baholash usullida davlat, ma'muriy, jamoatchilik boshqaruvi ishtiroki inobatga olingan holda mantiqiy blok sxemasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruvi, xavfsizlik texnikasiga rioya etish orqali shikastlanishlar ehtimolligini kamaytirish tashkiliy va texnik tavsiyalari ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya va sportdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklariga oid statistik ma'lumotlar natijalari tahlil qilingan;

sportchilarning jismoniy o'quv mashqlari, sport o'yinlari va musobaqalari jarayonida shikastlanishlarini hisoblashning elektron dasturi ishlab chiqilgan;

sport tashkilot mehnat muhofaza xizmati (boshqarmasi, bo'limi, shu'basi, mutaxassisi) boshqaruv va tashkil etish tizimi faoliyatini balli baholash darajalarini belgilovchi uslub uchun elektron dasturi ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya sportda mehnat muhofazasining boshqaruv tizimining tuzilmasi amaliy samaradorligi isbotlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy metodlardan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv, tashkil etish tizimlarini joriy etishning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlarni tahlili, mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etishni takomillashtirilgan tizimi elementlari o'rni va vazifalarni nazariy asoslash, mehnat muhofazasining boshqaruv va tashkil etishni takomillashtirilgan tizimining matematik modelini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini sport sohasida qo'llash asosida tizimni takomillashtirish orqali sport tashkilotlarida mehnat xavfsizligini oshirishga xizmat qiladigan usullar bilan ta'riflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv, tashkil etish tizimlarini joriy etishga va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar natijalari asosida:

Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv, tashkil etish tizimlarini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlarni tahlili qilinib, tizimining funksiyalari va vazifalarni nazariy asoslangan. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasining boshqaruv va tashkil etishni takomillashtirilgan tizimining algoritmi va matematik modeli Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan maktabiga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 18-avgustdagi №03-01/04/20/8450-son ma’lumotnomasi). Natijada jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etishni takomillashtirish imkonini bergan;

Kasbiy xavflar darajasini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimining tuzilmasi Andijon 1-son sport maktabiga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 18-avgustdagi №03-01/04/20/8450-son ma’lumotnomasi). Natijada sport tashkilotlarida mehnat muhofazasining boshqaruv va tashkil etish tizimining samarali ishlashiga erishilgan;

Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish orqali sport guruhida shikastlanishlar ehtimolini 40 foizga kamaytirish, ular (shikastlanishlar) tufayli guruhdagi sportchilar sonini (yo‘qotgan kunlarni) qisqarishi evaziga, o‘rtacha har bir sportchiga sarf-xarajati 350 ming so‘mga tejaladi. Mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan maktabiga joriy qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 18-avgustdagi №03-01/04/20/8450-son ma’lumotnomasi). Natijada jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish mexanizmni shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan nufuzli xorijiy jurnalda 3 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda 3 ta mahalliy ilmiy jurnallarda 3 ta, xalqaro miqyosidagi konferensiyalarda 2 ta va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar 3 ta. 2 ta dasturiy ta’minotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyani rivojlantirish yo‘nalishlariga bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi holatini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar natijalarini tahlili”** nomli birinchi bobida Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili, jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid islohatlar, sportda mehnat muhofazasini ta'minlashning sanitar-gigiyenik va kompleks chora-tadbirlari yoritilgan.

Mehnatni muhofaza qilishning eng asosiy talablaridan biri sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishdir. Agar tegishli korxona, tashkilot yoki muassasada ish beruvchi tomonidan ana shu zarur shart-sharoit yaratilmasa, xodimlar ko'pgina kasb kasalliklariga duchor bo'lishlari, bu esa boshqa og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Mehnat muhofazasini boshqaruv tizimi, mehnat xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan qonun va qonunosti hujjatlari, nizom va qoidalarda belgilangan mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilinishining nazoratiga ish beruvchi mas'ul hisoblanadi. Ish beruvchi tashkilotda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiruvchi mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini tashkil qilish kerak.

Jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish jahon hamjamiyatini ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Insonning jismonan sog'lom, aqlan yetuk, kuchli, irodali, matonatli bo'lib tarbiyalanishida sport turlarining o'rni beqiyosdir.

Yurtimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So'ngi yillarda respublikamizda sport sohasining jadal rivojlanishini hisobga olsak sportda mehnat muhofazasi boshqaruv tizimi masalalariga jiddiy yondashuv talab etadi.

Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini joriy etish asosiy vazifasi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari, sport jarayonlari mehnatni muhofaza qilish tizimi bilan bog'liqligi, sportchi va murabbiylarning mehnatni muhofaza qilish talablarining bajarilishi nazorat sifatlariga ta'siri, sport mashg'ulotlari sharoitining o'ziga xos xususiyatlari va uni baholashga oid texnik-me'yoriy hujjatlar tahlili asosida dissertatsiyaning maqsadi shakllantirildi va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Sportda mehnat muhofazasini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha nazariy tadqiqotlar”** nomli ikkinchi bobda sportda

mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini sportdagi shikastlanishlar va xavfsizlik ko'rsatgichlariga ta'sirini nazariy asoslash, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruv tizimi samaradorligining matematik modelini ishlab chiqish, sport turlari xavfsizligini baholash va shikastlanishlarni keskin kamaytirishda mehnat muhofazasini boshqaruvining ahamiyatini nazariy asoslashga oid tadbirlar amalga oshirilgan.

Ma'lumki, sportda mehnatni muhofaza qilish - bu sportchilar, murabbiylar va sport tadbirlarining boshqa ishtirokchilarining xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va amaliyotlar majmuidir. Sportda jarohatlar, ortiqcha ish, qoidalarga rioya qilmaslik va ishtirokchilarning farovonligiga ta'sir qiladigan va hatto ularning hayotiga tahdid soladigan boshqa omillar bilan bog'liq turli xil xavflar mavjud.

Shuningdek, sport anjomlari va inventarlarini ishlatish bo'yicha ko'rsatmalar mavjud. Ularga rioya qilmaslik, masalan, futbol maydonining notekis sirti, uning ustida o'tkir narsalarning mavjudligi, hovuzdagi to'siqlar bilan tubi notekisligi, sakrash uchun chuqurda va engil atletika maydonchasida qattiq zamin, maydondagi muz yuzasi (yoriqlar, bo'rtiqlar), sport zalida noto'g'ri yoki sirpanish, sport anjomlari uchun belgilangan talablarga rioya qilmaslik, sport o'yinlari uchun to'plarining o'lchamlari va og'irligiga mos kelmasligi yoki uloqtirish uchun snaryadlar belgilangan me'yorlar oshgani), silliq yuzaga ega bo'lishi kerak bo'lgan, barqaror bo'lishi kerak bo'lgan gimnastika apparatlarining noto'g'ri ishlashi, ularning noto'g'ri mahkamlanishi (bar, ot, tirgak va boshqalar) va boshqa ko'plab sabablar ko'pincha sportchilarning shikastlanishiga olib keladi.

Mehnat muhofazasini boshqaruvi sport jarayonlari xavfsizligini ta'minlash tizimi jismoniy tarbiya va sport sohasida hamda shu sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini yaratish va faoliyatiga qo'yiladigan umumiy talablarni, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash va xodimlarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishning yagona tartibini, talabalar, sportchilar, ommaviy sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarni, mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash bo'yicha faoliyatning asosiy yo'nalishlarini, mehnatni muhofaza qilish va o'quv jarayonining xavfsizligi sohasidagi majburiyatlarini belgilaydi:

Sportda mehnat muhofazasini boshqaruvi mashg'ulotlardan band bo'lgan sportchilarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy tuzilma, usullar va amaliyotlardan iboratdir. U sportdagi baxtsiz hodisalar, shikastlanishlar va sport bilan bog'liq kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tahlil, xavflarni boshqarish, xodimlarni o'qitish va nazorat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda amaliyotdagi sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi milliy va xalqaro standartlar talablariga, shaklan va mazmunan mos kelmaydi. Mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimlari, odatda, ISO 45001:2018 "Kasbiy salomatlik va xavfsizlikni boshqarish tizimlari-foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" nomli standarti talablari tavsiyalariga asosan yaratiladi. Mazkur xalqaro standart va boshqa ilmiy tadqiqotlar natijalari hisobga olinib,

sportda mehnatni muhofazasi qilishni boshqaruv tashkil etish tizimining tuzilmasi va elementlar ierarxiyasi hamda ularni o‘zaro bog‘lanish tartibi ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqilgan sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tuzilmasi va taklif etgan ma’lumotlarni hisobga olish orqali sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini ballar bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Sport tashkiloti mehnat muhofaza xizmati (boshqarmasi, bo‘limi, shu’basi, mutaxassisi) boshqaruv va tashkil etish tizimi faoliyatini balli baholash darajalari baholash orqali jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimining samarali tashkil qilinganligini, ya’ni: to‘plangan ball ko‘rsatkichi 60-70 ball oralig‘ida bo‘lsa *qoniqarli*, to‘plangan ball ko‘rsatkichi 71-80 ball oralig‘ida bo‘lsa *yaxshi*, to‘plangan ball ko‘rsatkichi 81-90 ball oralig‘ida bo‘lsa *o‘rta yuqori*, to‘plangan ball ko‘rsatkichi 91-100 ball oralig‘ida bo‘lsa *yuqori* darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Mehnatni muhofaza qilish darajasini tavsiflovchi miqdoriy ko‘rsatkich sifatida mehnatni muhofaza qilish darajasi koeffitsiyenti qabul qilinadi

$$K_{ot} = \frac{\sum_{i=1}^n B_i}{P} \quad (1)$$

Bunda P - tahlil qilingan davr uchun birlikdagi xodimlarning o‘rtacha soni.

Mehnatni muhofaza qilish talablarining turli xil buzilishlari uchun jarima ballari miqdori n

$$B = B_1 + B_2 + B_3 + \dots + B_n \quad (2)$$

bunda $B_1, B_2, B_3, \dots, B_n$ - mehnatni muhofaza qilish talablarini buzishning har bir turi uchun jarima punktlari bo‘lib, ularning qiymatlari birlikdagi mehnatni muhofaza qilish darajasini baholash xaritasi yordamida aniqlanadi.

$$B = V n_i \quad (3)$$

Bunda; V — Oqibatlar og‘irligi qoida buzarliliklar; n_i - bo‘linmadagi qoida buzarliliklar soni. B-jarima ballari soni

Mehnatni muhofaza qilish darajasini baholash muassasa komissiyasi tomonidan to‘ldiriladi, uning tarkibiga mehnatni muhofaza qilish ishlariga mas’ul, tibbiy-sanitariya holatiga mas’ul, kasaba uyushma qo‘mitasi va asosiy mutaxassislari kiradi. Komissiya sport tashkiloti rahbarining buyrug‘i bilan tuziladi.


Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi tuzilmasini ishlab chiqishda asosiy mezonlardan biri bo‘lgan kasbiy xavflar darajasini belgilash muhim hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasining kasbiy xavflar darajasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2009 yil 24 iyundagi qarorining 9-ilovasiga muvofiq **“01-klass”** 19-bandda “Jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish komplekslari, o‘quv-mashq markazlari va bazalar,

stadionlar, sport saroylari, ixtisoslashtirilgan va kompleks sport zallari, manejlar, velotrekler, sun'iy suv basseynlari va muz uchish maydonlari, otish maydoni, tirlar (stendlar) va boshqalar” belgilangan.

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishlash rejasi ish beruvchi tomonidan har yili amalga oshiriladigan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning odatiy ro'yxatini hisobga olgan holda tuziladi.

Mehnat sohasidagi davlat siyosati va huquqiy tartibga solishni ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan ijroiya organi tomonidan tasdiqlangan mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish va kasbiy xavf darajasini pasaytirish.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqarishning, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasi tizimi: jamoatchilik, ishchi-xodimlar ish joylarida mehnat sharoitlarining takomillashtirishda, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish yuzasidan nazoratni amalga oshirishda bevosita ishtirok etishlari talab qilinadi. Mehnat muhofazasi talablariga rioya qilinishi yuzasidan olib boriladigan boshqaruv tizimini tashkil qilish metodologiyasining matematik modelini ishlab chiqish va model asosida mavjud mehnatni muhofaza qilish uslublarini takomillashtiradi.



1-rasm. Mehnat muhofazani boshqaruvini tashkil qilishning blok sxemasi.

boshqaruvini blok sxemasini (1-rasm) ishlab chiqish va takomillashtirishda, mehnatni muhofaza qilish talablariga amal qilish orqali sport jarayonidagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari sodir bo'lish ehtimolini kamayishiga olib kelishi nazarda tutilgan holda, ehtimollar nazariyasi qonuniyatlaridan foydalanildi.

Ma'lumki, xavflar maydoni – ishlab chiqarish jarayonlar, texnik tizimlar, “inson-texnika-ishlab chiqarish muhiti” ning xavfli (xavfli va zararli) omillari

Mashg'ulotlar va o'quv jarayonida jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish, shuningdek ularning kelib chiqish sabablarini, noxush hodisalarni bartaraf etish, davlat nazorati va tekshiruv organlari bilan birgalikda mehnat sharoitlari va muhofazasi holatini o'rganish amaliyoti uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari sohaga oid hududiy kelishuvlar, jamoa shartnomalarini aniq choralar bilan boyitilishiga, ularda xodimlar va sportchilar uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari ko'paytirilishiga erishish, qabul qilingan qarorlar noxush hodisalar, jarohatlanish va kasb kasalliklari sodir bo'lish ehtimolini keskin kamaytiradi.


Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini

baxtsiz hodisalar (shikastlanishlar va jarohatlar)ning va kasb kasalliklari hisoblanadi.

Xavflar maydonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holat mehnat muhofazasiga oid talablariga rioya qilmasligi natijasida kuzatiladi. Xavflar maydonida qanchalik ko'p vaqt qolish xavf holatlar chastotasi ortishi xavfli hodisa kelib chiqish ehtimolini keskin ortishiga olib keladi. Xavflar maydonidagi xavfli holatlar chastotasining vaqt (soat, kun, oy, yil) birligidagi miqdor qancha katta bo'lsa, xavfli hodisalarning (baxtsiz hodisalar (shikastlanishlar va jarohatlar) va kasb kasalliklari) ehtimoli yuqori bo'ladi. Xavflar maydonidagi xavfli holatlarning oldini olish choralarini qo'llash, xavfli holatlar vujudga kelgandagi sportchi va murabbiylarning to'g'ri harakati mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishidan darak beradi.

Sport tashkilotlaridagi har bir obyektida mehnat muhofazasi talablariga amal qilish yuzasidan uch turdagi nazorat olib borishni qonun, nizom va qoidalarda aniq belgilab qo'yilgan.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqarish tizimi vazifalari va funksiyalari asosida mehnat muhofazasi boshqaruv tizimini tashkil etishda o'yinlari, mashqlari, musobaqalar xususiyatlarini hisobga tashkil etishning mantiqiy matematik modelini ketma-ketlikda ifodalash mumkin (2-rasm).



2-rasm Mehnat muhofazasi boshqaruv blok-sxemasi.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish tizimi o'yinlar, mashqlar xususiyatlarini hisobga olmaslik sportchilarni xavflar maydonidan ekanligini ko'rsatadi. Xavflar maydoni – faoliyat jarayonlarida, texnik tizimlar, “inson-texnika-ishlab chiqarish muhiti” ning xavfli (xavfli va zararli) omillari baxtsiz hodisalar (shikastlanishlar va jarohatlar)ning va kasb kasalliklari hisoblanadi.

Xavflar maydonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holat mehnat muhofazasiga oid talablariga rioya qilmasligi natijasida kuzatiladi. Xavflar maydonida qanchalik ko'p vaqt qolish xavf holatlar chastotasi ortishi xavfli hodisa kelib chiqish ehtimolini keskin ortishiga olib keladi. Xavflar maydonidagi xavfli holatlar chastotasining vaqt (soat, kun, oy, yil) birligidagi miqdor qancha katta bo'lsa, xavfli hodisalarning (baxtsiz hodisalar (shikastlanishlar va jarohatlar) va kasb kasalliklari) ehtimoli yuqori bo'ladi. Xavflar maydonidagi xavfli holatlarning oldini olish choralarini qo'llash, xavfli holatlar vujudga kelgandagi sportchi va

murabbiylarning to'g'ri harakati mehnat muhofazasi talablariga rioya etilishidan darak beradi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish tizimi o'yinlar, mashqlar xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat muhofazasi talablariga amal qilish yuzasidan uch turdagi boshqaruvni olib borishni qonun, nizom va qoidalarda aniq belgilab qo'yilgan.

Ushbu blok-sxemadagi har bir bosqich bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi va ularni amalga oshirish ishonchliligi ehtimoli boshqaruvni tashkil etish P_{BTE}^D , davlat nazorat boshqaruvi bosqichida P_N^D , tadbirlar ishlab chiqish P_{TICH}^D tashkil etadi. Ehtimollar nazariyasi qonunlariga ko'ra ishonchlilik bo'yicha ketma-ket amalga oshadigan, ya'ni ketma-ket bog'langan elementlaridan iborat blok-sxemani umumiy ishonchliligi, ular mustaqil bosqichlar bo'lgani uchun qo'yidagicha hisoblanadi:

$$P_{UM}^D = P_{BTE}^D \cdot P_N^D \cdot P_{TICH}^D \quad (4)$$


Mehnat muhofazasini boshqarishda ma'muriy-jamoaviy boshqaruv orqali mehnat muhofazasining talablarini bajarishini ta'minlashda yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirishdagi umumiy ishonchlilik quyidagi hisoblanadi, ya'ni barcha mustaqil ketma-ket bosqichlar ishonchlilik ehtimollari ko'paytmasi topiladi:

$$P_{UM}^M = P_{BTE}^M \cdot P_N^M \cdot P_{TICH}^M \quad (5)$$

Xuddi shunga o'xshash jamoatchilik boshqaruvi (kasaba uyushmasi yoki jamoatchilik vakili, guruhi) ishonchlilik ehtimoli ko'paytmasi teng bo'ladi:

$$P_{UM}^J = P_{BTE}^J \cdot P_N^J \cdot P_{TICH}^J \quad (6)$$

Mehnat muhofazasi talablariga rioya etish va ularga oid barcha tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli o'tkazish, davlat, ma'muriy hamda jamoatchilik boshqaruv bosqichida ijtimoiy hamkorlikni joriy etish orqali olib borilishi boshqaruv natijalarini ishonchlilik ehtimoli yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish davlat, ma'muriy va jamoatchilik ishtiroki birgalikda amalga oshirilganda, boshqaruv blok-sxemasi quyidagi elementlardan tashkil topadi (3-rasm)



3-rasm. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish tizimini takomillashtirilgan mantiqiy blok sxemasi.

Ushbu boshqarish blok-sxemasi bir-biridan mustaqil yagona maqsadga qaratilgan boshqaruv bosqichlarini ketma-ket va parallel bog‘langan elementlardan tashkil topgan bo‘lib, bosqichlar ishonchliligi ehtimolini umumiy qiymati quyidagicha topiladi:

$$P_{UM}^X = (P_{BTE}^D \cdot P_N^D \cdot P_{TICH}^D) + (P_{BTE}^M \cdot P_N^M \cdot P_{TICH}^M) + (P_{BTE}^J \cdot P_N^J \cdot P_{TICH}^J) - [(P_{BTE}^D \cdot P_N^D \cdot P_{TICH}^D) \cdot (P_{BTE}^M \cdot P_N^M \cdot P_{TICH}^M) + (P_{BTE}^D \cdot P_N^D \cdot P_{TICH}^D) \cdot (P_{BTE}^J \cdot P_N^J \cdot P_{TICH}^J) + (P_{BTE}^M \cdot P_N^M \cdot P_{TICH}^M) \cdot (P_{BTE}^J \cdot P_N^J \cdot P_{TICH}^J)] + (P_{BTE}^D \cdot P_N^D \cdot P_{TICH}^D) \cdot (P_{BTE}^M \cdot P_N^M \cdot P_{TICH}^M) \cdot (P_{BTE}^J \cdot P_N^J \cdot P_{TICH}^J) \quad (7)$$

Hosil qilingan matematik modelni tahlili orqali quyidagi natijalarni olish mumkin, masalan boshqaruv blok-sxemasi (3-rasm) tarkibiga kiruvchi ketma-ket bog‘langan bir-biridan mustaqil bosqichlar natijalarini davlat tomonidan boshqaruv ishonchlilik ehtimoli 0,8 ga teng bo‘lsa, ma‘muriy, jamoatchilik tomonidan boshqaruv ishonchlilik ehtimoli 0,9 ga teng bo‘lsa,

$$P_{UM}^D = 0,8 \cdot 0,8 \cdot 0,8 = 0,512 \quad (8)$$

Bundan xulosa chiqarib ta’kidlash joizki, $P_{UM}^M = 0,729$ va $P_{UM}^J = 0,729$

Mehnat muhofazasi boshqaruvida ijtimoiy hamkorlik joriy etilishi ishonchlilik ehtimolini orttirishiga xizmat qiladi, boshqaruv natijalari ishonchlilik ehtimoli ortadi.

Bundan, ya’ni ishlab chiqilgan blok-sxema elementlarining ishonchlilik ehtimoli Hisob natijalaridan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimida ijtimoiy hamkorlik, ya’ni davlat, ma‘muriy, jamoatchilik boshqaruvni ishtiroki ta‘minlanganda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimini ishonchlilik ehtimoli 47 foizga ortadi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil etish tizimini matematik modeli ishlab chiqish va uni takomillashtirish, bundan ijtimoiy hamkorlik asosida mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish xavfli holat, xavfli hodisa yuzaga kelish ehtimolini 47 foizga kamayishiga olib keladi, ushbu natija boshqaruv jarayonidagi bir-biridan mustaqil uch bosqichni va uch turdagi boshqaruvni parallel olib borish evaziga boshqaruv natijalari ishonchliligi ehtimoli ortishi tufayli hosil bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan mantiqiy blok-sxemani ehtimollar nazariyasiga asoslangan matematik modelini tahlili ijtimoiy hamkorlik mehnat muhofazasi talablariga rioya etish natijalari ishonchlilik ehtimolini keskin ortishiga olib keladi, boshqaruv samaradorligi yuqori bo‘ladi va har bir jismoniy tarbiya va sport faoliyati ishtirokchilari xavfsizligi ta‘minlanadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida har doim shikastlanish xavfi yuqori. Bu jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga xavfsizlik choralari amalga oshirishga yuqori talablar qo‘yadi.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik choralariga rioya qilish sportchilarning hayoti va sogʻligʻini saqlashning muhim omillari va jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini muvaffaqiyatli oʻtkazish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Jismoniy tarbiya va sportdagi shikastlanishlarning xavfsizlik koʻrsatgichlarini mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi samaradorligini oshirishga oid tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlari”** nomli uchinchi bobida Tajriba tadqiqotlari dasturi va natijalarini qayta ishlash uslublari bayon etilgan, jumladan, jismoniy tarbiya va sportdagi shikastlanishlarga olib keluvchi xavfli holatlarni, xavfli hodisalarni va ularni sabablarini aniqlash boʻyicha tajriba natijalarini tahlili, sportdagi xavfli holatlar va xavfli hodisalar sabablarini sonini kamaytirish va xavfsizlikni oshirishga oid tashkiliy, iqtisodiy va texnik choralari ishlab chiqish, sport sohasida mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirilgan strukturasi va uni tarkibiy elementlari, mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirilgan tizimini ijtimoiy, iqtisodiy va texnik samarasini baholash batafsil keltirilgan. Bayon etilgan maʼlumotlarga asoslangan xulosalar keltirilgan.

Yosh havaskor sportchilarning shikastlanishi uning mashgʻulotlarni oʻzlashtirishiga ham salbiy taʼsir etishi ehtimoli juda yuqori. Toʻplangan maʼlumotlarni sport bilan shugʻullanish bosqichlari boʻyicha tahlili shuni koʻrsatdiki, eng yuqori shikastlanish boshlangʻich bosqichdagi sportchilarida qayd etilgan, yuqori bosqichlarda (bosqichma-bosqich pogʻonalarga koʻtarilishi), shikastlanishlar sonining kamayish holati roʻy bergan.

Shikastlanishlar sonining boshlangʻich bosqichdan yuqori bosqichga qarab kamayib borishini, sportchilarning, mashgʻulotlar soatlaridan tashqaridagi oʻquv yuklamalarining koʻpayishi tufayli sport oʻyinlari, musobaqalarda ishtiroki kamayib borishi bilan izohlash mumkin boʻlsa, bu bogʻliqlikning yana bir sababi sifatida havaskor sportchi yoshlarning yildan-yilga sport mahoratining ortib borishi hisobiga xam boʻladi.

Sportchi yoshlarning shikastlanishi tahlili koʻrsatdiki, 18-22 yoshli havaskor sportchilarning shikastlanishi barcha sport turlari boʻyicha qayd etilmoqda. Eng yuqori shikastlanish kurash va futbol yoʻnalishlarida qayd etilgan. Har 1000 nafar sportchidan 11-19 nafari turli sport oʻyinlarida shikastlangan. Bir shikastlanish tufayli yosh havaskor sportchi, har yili oʻrtacha 11-15 kun ishga yaroqsiz boʻladi. Har 1000 nafar sportchiga hisoblaganda (yilda shikastlanish tufayli har 1000 sportchiga toʻgʻri keladigan ishga yaroqsiz kunlarning umumiy soni), yilda oʻrtacha 165-265 kun shikastlanish tufayli sportchi mashgʻulotlarga ishtirok etish imkoniyatidan mahrum boʻladi. Bu raqamlar havaskor sportchi yoshlar faoliyati maʼlum darajada xavfli faoliyat ekanligini koʻrsatadi.

XULOSA

“Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish samaradorligini oshirish” mavzusidagi dissertatsiya boʻyicha quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Sport jarayonda mehnatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida mehnat muhofazasini boshqaruvi va tashkil

etish tizimi hamda xavfli holat, xavfli hodisa yuzaga kelishi mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etishga ta'sirini baholash imkoniyatini beruvchi boshqaruv jarayonidagi bir-biridan mustaqil uch bosqichni va uch turdagi boshqaruvni olib borishni ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan.

2. Ehtimollar nazariyasi qonunlari doirasida ishlab chiqilgan jarayonda qatnashuvchi elementlar asosida jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv tizimining samaradorlik koeffitsiyenti aniqlash modeli ishlab chiqilgan. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruvi tuzilmasi va elementlar iyerarxiyasi orqali takomillashtirilgan.

3. Kasbiy xavflar darajasini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat muhofazasini boshqaruvi tuzilmasi, jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimi ehtimollar nazariyasi qonunlari asosida matematik baholash usullida davlat, ma'muriy, jamoatchilik boshqaruvi ishtiroki inobatga olingan holda mantiqiy blok sxemasi takomillashtirilgan.

4. Mehnatni muhofaza qilish darajasini baholash karta-jadvali orqali jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruvi tizimining samarali tashkil qilinganligini, ya'ni: to'plangan ball ko'rsatkichi 60-70 ball oralig'ida bo'lsa *qoniqarli*, to'plangan ball ko'rsatkichi 71-80 ball oralig'ida bo'lsa *yaxshi*, to'plangan ball ko'rsatkichi 81-90 ball oralig'ida bo'lsa *o'rta yuqori*, to'plangan ball ko'rsatkichi 91-100 ball oralig'ida bo'lsa *yuqori* darajada ekanligini ko'rsatadi.

5. Jismoniy tarbiya va sport faoliyati tashkil qilishni tizimli o'rganish asosida mehnat muhofazasini boshqaruv tizimining faoliyatining samaradorligiga ta'siri statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish orqali ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik aniqlangan. BO'SM bo'limlarida pullik sport ta'limi xizmatlarni olishi guruhida muntazam ravishda 12 nafar sportchi shug'ullanishi shart. Sportdagi shikastlanishlar oqibatida guruhdagi sportchilar soni har oyda o'rtacha to'rt nafarga qisqarsa (shikastlanish ehtimoli 40 foizgacha), tenglik sharti bajarilmaydi, ya'ni sport maktabi moliyaviy zarar ko'radi. Agarda sportchilarni shikastlanish ehtimoli 30-40 foiz atrofida bo'lsa, bu 8 nafar sportchini tashkil etadi.

6. Sportchilar faoliyatini kuzatishlari natijalarini, shikastlovchi zararli va xavfli omillarini manbalarini, yuzaga kelish sabablarini chuqur nazariy va amaliy tahlil etish hamda sportchilar mehnatini zo'riqishi parametrlarini son va sifat ko'rsatkichlarini baholash, mehnat muhofazasini ta'minlashni usullari va tamoyillari sportchilar mehnat sharoitlari xavfsizligini oshirishda mehnatni muhofaza qilish tizimini uni boshqarishdan samarali foydalanish imkoniyatini ro'yobga chiqaradi.

7. Jismoniy tarbiya va sportda mehnat muhofazasini boshqaruv va tashkil etish tizimini joriy etish orqali sport guruhida shikastlanishlar ehtimolini 40 foizga kamaytirish, ular (shikastlanishlar) tufayli guruhdagi sportchilar sonini (yo'qotgan kunlarni) qisqarishi evaziga, o'rtacha har bir sportchiga sarf-xarajati 350 ming so'mga teжалadi, ya'ni 100 nafar sportchi uchun 35 000 000 so'mni tashkil qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНЫЙ СОВЕТА DSc.15/31.08.2022.Т.73.07
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ЛАТИБОВ ШОХРУХБЕК МАХАМАТЮСУП ЎҒЛИ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ
УПРАВЛЕНИЯ И ОРГАНИЗАЦИИ ОХРАНЫ ТРУДА В ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

05.10.01 – Охрана труда и безопасность деятельности человека

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2022.2.PhD/T2968.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу (www.tdtu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель:

Нарзиев Шовкиддин Муртозаевич
доктор философских наук (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Йулдошева Озодахон Мухаммадсодик кизи
доктор технических наук (DSc), доцент

Шукурова Сайёра Саъдуллаевна
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете (Адресу: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; E-mail: rektorat@tstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано №_____). (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32. E-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2024 года)

Р.В. Рахимов

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Я.О. Рузметов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

С.С. Сулайманов

Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире проводится широкомасштабная работа, направленная на формирование здорового образа жизни, создание условий, соответствующих современным требованиям для регулярного занятия физической культурой и массовым спортом населения, особенно молодого поколения, а также на дальнейшее развитие физической культуры и массового спорта. По этой причине уделяется внимание разработке мер по охране труда регулярно занимающихся спортом, снижению динамики несчастных случаев и травматизма, как одной из приоритетных задач на перспективу. В связи с увеличением количества людей, подвергающихся риску профессиональных вредностей в мировом спорте, предупреждению опасных ситуаций, нормативно-правовому, организационно-техническому, социально-экономическому, санитарно-гигиеническому, лечебно-профилактическому регулированию охраны труда одна из важных задач. У спортсменов 40% заболеваний опорно-двигательного аппарата приходится на травмы суставов, переломы–7,1%, мышечные травмы–6%, переедание широчайших-6,2% циклические и часто наблюдаются в спортивных играх. В этой связи особое внимание уделяется координации и повышению эффективности развития в единой системе управления и организации охраны труда в физической культуре и спорте экономически-социально развитых и развивающихся стран.

